

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– iyun holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1466 taga o'sdi**
- Faoliyat ko`rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,4 f.p. ko'paygan**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1442 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-iyun oyida bo'yicha viloyatda yilning boshiga nisbatan 1769 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 31,5 foizga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tuga-tilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 47,5 % etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 1466 ta (10,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 15872 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning ing asosiy ulushi Termiz shahrida (20,1 foiz), Denov ga kamaygan hamda ular (12,2 foiz), Jarqo'rg'on ning soni 327 tani tashkil (8,0 foiz) va Termiz (7,0 foiz) tumanlarida kuzatilmogda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyul holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
Surxondaryo viloyati	15872	100	15047	100
Temiz sh.	3111	19,6	3026	20,1
tumanlar:				
Oltinsoy	655	4,1	593	4,0
Angor	748	4,7	716	4,8
Boysun	761	4,8	732	4,9
Muzrabot	653	4,1	610	4,0
Denov	1923	12,1	1831	12,2
Jarqo'rg'on	1244	7,9	1202	8,0
Qumqo'rg'on	1013	6,4	932	6,2
Qiziriq	812	5,1	768	5,1
Sariosiyo	921	5,8	864	5,7
Termiz	1093	6,9	1060	7,0
Uzun	933	5,9	828	5,5
Sherobod	957	6,0	921	6,1
Sho'rchi	1048	6,6	964	6,4


**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,8%ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,2 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,4 foizga ko'payganligini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan **24,1** % savdoda, **12,1** % sanoatda, **10,9** % qurulishda, **7,9** % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, **7,0** % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, **4,5** % tashish va saqlash, **1,7** % sog'linqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, **1,4** % axborot va aloqa va **30,4** % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




### **Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




2018 yil yanvar-iyun holatiga 1769 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 31,5 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Termiz shahrida (289 ta), Denov (242 ta), Sho'rchi (190 ta) va Qumqo'rg'on tumanlarida (147 ta) tashkil etilgan. Eng kam Oltinsoy (60 ta), Boysun (75 ta), Uzun (76 ta), Muzrabot (79 ta) hamda Sherobod (82 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### **Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda**



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (425 ta), boshqa turlarida (402 ta), sanoatda (260 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (247 ta), qurilishda (206 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (119) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (11 ta), sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (45 ta) va tashish va saqlashda (54 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda





## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-iyun holatiga.	2018 yil yanvar-iyun holatiga.
<b>Jami:</b>	<b>1345</b>	<b>1769</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	189	247
Sanoat	261	260
Qurilish	173	206
Savdo	304	425
Tashish va saqlash	84	54
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	155	119
Axborot va aloqa	14	11
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	20	45
Boshqa turlari	145	402


## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda

2018 yil 1 iyul holatiga 11677 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5338 ta, oilaviy korxonalar – 688 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 5229 ta, aktsiyadorlik jamiyatları – 23 tani va boshqalar 399 tani tashkil etadi.




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 97 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 37 taga yoki 61,7 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 41 tasi qo'shma korxonalar, 56 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.




### Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Termiz shahar 38 ta (39,2 %), Termiz 10 ta (10,3%), Denov va Qumqo'rg'on tumanlarida 7 ta dan (7,2 % dan), Sherobod va Jarqo'rg'on tumanlarida 6 ta dan (6,2 % dan), Sariosiyo 5 ta (5,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Angor, Sho'rchi va Muzrabot tumanlarida 4 ta dan (4,1% dan), Qiziriq va Oltinsoy tumanlarida 2 ta dan (2,1 % dan) Uzun hamda Boysun tumanlarida 1 tadan (1,0 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishslashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda**



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyul holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 38 ta (39,2%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 23 ta (23,7%), savdoda 19 ta (19,6%), boshqa faoliyat turlarida va tashish va saqlashda 5 ta dan (5,2 % dan), qurilishda 4 ta (4,1%) tashkil qilgan, eng kamlari esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, axborot va aloqada, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta dan (1,0%dan) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-iyun holatiga) birlikda


2018 yilning yanvar-iyun oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 40 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34 taga ko'paygan yoki 6,7 baravarga oshgan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-1 ta, Koreya Respublikasi - 1 ta, Germaniya Federativ Respublikasi – 1 ta, Gruzya Respublikasi - 1 ta, Tojikiston Respublikasi - 3 ta, Eron Islom Respublikasi - 4 ta, Qozogiston Respublikasi – 4 ta, Afg'oniston Islom Respublikasi - 24 ta, va yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 16 ta, savdoda 13 ta, sanoatda 7 ta, qurilishda 3 ta hamda tashish va saqlashda 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


### **Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



## Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 11590 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyul holatiga qaraganda 10,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2563 tasi (22,1%) Termiz shahriga, 1451 tasi (12,5%) Denov, 944 tasi (8,1%) Jarqo'rg'on hamda 907 tasi (7,8%) Termiz tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11590 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3597 tasi (31,0 %) – savdoda, 1814 tasi (15,7 %) - sanoatda, 1660 tasi (14,3 %) - qurilishda, 1289 tasi (11,1 %) - boshqa faoliyat turlarida, 1104 tasi (9,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1038 tasi (9,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 678 tasi (5,8 %) - tashish va saqlashda, 207 tasi (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda shuningdek 203 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasida, hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-iyun holatiga 1584 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 21,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Termiz sh. (255 ta), Denov (223 ta), Sho'rchi (187 ta), Qumqo'rgon (120 ta), Jarqo'rg'on (113 ta), Angor (99 ta), Qiziriq (97 ta), Termiz (90 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Sherobod (79 ta), Sariosiyo (77 ta), Muzrabot (76 ta), Boysun (70 ta), Uzun (61 ta) hamda Oltinsoy (37 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (425 ta), sanoatda (260 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va (247 ta), boshqa turlarida (218 ta), qurilishda (205 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (119 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (54 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (45 ta) hamda axborot va aloqada (11 ta) tashkil etilgan.


## **Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da**



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyul holatiga 755 tani tashkil etib, ulardan 698 tasi yoki 92,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha **24,2 %**ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 33,2 % yoki 232 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 23,9 % yoki 167 tasi sanoat, 22,5 % yoki 157 tasi savdo, 13,0 % yoki 91 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,9 % yoki 13 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 7 tasi qurilish, 0,7 % yoki 5 tasi sog`lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, hamda 3,5 % yoki 24 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

## **Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



# Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi

## statistik registrlarni yuritish bo'limi



# Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan